

Article

AHOLINING SIHATGOHLARNING INSON HAYOTIDAGI ROLI VA O'RNI HAQIDAGI FIKR VA MULOHAZALARINI SOTSIOLOGIK O'RGANISH

Madaxanov A.S.¹  Shamatov I.Ya.²  Xalilov I.X.¹ 

1. Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O'zbekiston.

2. Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

Abstrakt. Maqolada aholining sihatgohlar xizmatidan foydalanish faolligi demografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va har bir inson organizmining morfo-funksional holati bilan bog'liq sharoitdan kelib chiqadigan integral ko'rsatkich ekanligi ta'kidlanadi. Mualliflar olib borilgan sotsiologik tadqiqotlarining natijalariga asoslangan holda, aholining turli qatlamlariga mansub a'zolarida shakllangan, sihatgohlarning inson hayotidagi roli va o'rni haqidagi fikr va mulohazalarining mazmun va mohiyatini tahlil qilishgan. Bunda aholining sihatgohlar haqidagi fikrlari to'laqonli shakllanmaganligi va mulohazalarining sayozligi ko'rsatib o'tiladi. Ushbu probelni to'ldirishda, soha olimlari va mutahasislari, davolash-profilaktika muassalari va sihatgohlarning shifokorlari, hamda turoperatorlarning, avvalo o'zaro hamkorlikda ishlashlarining zarurligiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, sihatgohlar faoliyatini, jumladan ushbu maskanlarning inson hayotidagi o'rni va rolini propaganda qilishga doir tadbirlarning tashkiliy tomonlarini yanada takomillashtirishning zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sihatgoh, sihatgoh shifokori, sihatgoh haqida fikrlar, sihatgohlarga doir mulohazalar, sihatgohlarning samaradorligi, sihatgohlar faoliyati.

Dolzarbligi.

Inson organizmiga ta'sir etib, uning sihat-salomatligi darajasini belgilaydigan, sifat va miqdor jixatidan sonsiz-sanoqsiz shart-sharoitlar majmuasida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rni va ijobiy roli beqiyosdir. Sihatgohlar faoliyati sog'liqni saqlashga qaratilgan, mazmun va mohiyati nuqtai nazardan ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega chora-tadbirlarning markazida turadigan voqelikdir [7,10,14,15,16]. Ushbu tibbiy muassasalar individ, oila, katta va kichik jamoa, tuman va shahar miqyosida o'tkaziladigan birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikaga oid amallarning barchasiga dahldorligi bilan ajralib turadigan muhim maskandir. Bugungi kunda, turizm O'zbekiston Respublikasida hayotiy jabhalarning barcha yo'nalishlariga tobora kirib borayotganligi, mamlakat iqtisodiy barqarorligini, turli davlatlar xalqlarining o'rtasida o'zaro do'stlik, madaniy aloqalarining mustahkamlanishini ta'minlashda salmog'i, salohiyati jihatidan muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgan sohadir. Ichki va tashqi turizmining jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlashda davolash-sog'lomlashtirish turizmining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois turizmning ushbu yo'nalishini rivojlantirishga oid har qanday chora-tadbirlar, jumladan sihatgohlar va ular faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni chuqur va atroflicha o'rganishni taqozo etadi. Zero, sihatgohlar turizm industriyasiga, jumladan davolash-sog'lomlashtirish turizmiga samarali xizmat qiladigan asosiy tibbiy muassasadir [4,6,8,12,14]. Sihatgohlarni turistik industriyaning betakror fenomeni sifatida e'tirof etishadi [7]. Sanatoriya-kurort muassasalarida davolanish asosan tabiiy shifobaxsh omillardan (atrof muhitning tabiiy shifobaxsh iqlimi, madanli suvlari, shifobaxsh balchiq loyi, qumi va h.k.) foydalanib bemorning dardiga shifo berishga harakat qilishdan iborat [3,8,15,16]. Parhez taomlarni ratsional ravishda iste'mol qilish, turli zamonaviy fizioterapevtik apparatlardan foydalanish, dori-darmonli, hamda shifobaxsh badantarbiya yuklamalari, stresslardan holi, psixologik xotirjamlikni tashkil qilish ham ushbu maskanlarda ko'rsatiladigan kompleks tadbirlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda, shuningdek bioiqlim va landshaft har qanday sanatoriya joylashgan kurort xududi tabiiy shifobaxsh omillarini tashkil qilishini ta'kidlash o'rinlidir.

Sihatgohlar faoliyatining turli qirralariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ushbu masalalar qator olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilganligini ko'rsatib o'tish o'rinlidir [2,7,11,13]. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, aholining sihatgohlarga davolanish-sog'lomlashtirish maqsadida kelish faolligi integral ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkichlar o'z navbatida qator omillar ta'siri ostida shakllanadi. Bu borada, aholi turli qatlamlarining sihatgohlar xizmatidan foydalanish faolligi demografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va har bir inson organizmining morfo-funksional holati bilan bog'liq sharoitdan kelib chiqishini ta'kidlash lozim. Ayni paytda, bizga ma'lum manbaalarda, aholining turli guruxlarida sihatgohlarning inson hayotidagi roli va o'rni haqidagi fikr va mulohazalarining shakllanganlik darajasi o'rganilmay qolayotganligi e'tiborni tortadi.

Tadqiqotning maqsadi. Sihatgohlar va ular faoliyatining inson hayotidagi o'rni va rolini targ'ibot qilishga doir chora-tadbirlarning tashkiliy tomonlarini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Aholining turli guruhlarida sihatgohlarning inson hayotidagi roli va o'rni haqidagi

fikr va mulohazalarining shakllanganlik holatini o'rganishga bag'ishlangan ushbu tadqiqotda sotsiologik usul qo'llanildi. Tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib tuzilgan mahsus dastur va rejaga binoan materiallar oilalar miqyosida yig'ildi. Bunda, anketadagi savollarga oila a'zolaridan faqat bir vakil javobi qayd etildi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlarning reprezentativligi B.Mamatqulov, 1913y, tomonidan taklif etilgan (General majmua aniq bo'lganda tadqiqot natijalari 5% xatolikdan oshmaydigan kuzatuv birliklari soni) statistik yondashuvga asoslandik. Tadqiqotimizning tanlov asosida shakllangan statistik majmuadagi kuzatuv birliklarining soni 403 ni tashkil etdi. Oilalarda bevosita anketadagi savollarga javob yig'ish Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Andijon davlat tibbiyot institutining 4-kurstalabalari tomonidan amalga oshirildi. Samarqand, Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarining turli shahar va qishloqlaridan kelib ushbu oliygohda tahsil olayotgan talabalarning aksariyat ko'pchiligi haftaning shanba kunlari nazariy va amaliy mashg'ulotlar tamom bo'lgach, odatda uylariga qaytishadi. Ana shunday talabalar maqola mualliflari tomonidan tuzilgan maxsus "Oilalarning dam olishga, sog'liqlarini saqlashga va tiklashga bo'lgan ehtiyojlari sanatoriya kurort sharoitlarida qondirilishini tashkil etishga doir masalalarda aholi fikrini o'rganish savolnomasi" bilan ta'minlanishdi. Talabalardan uylariga borganlarida, yon qo'shni hisoblangan 10 ta oilaga kirib, ushbu anketalarni to'ldirib qaytishlari iltimos qilindi. Talabalar institutga qaytishgach, to'ldirilgan savolnomalarni maqola mualliflariga topshirishdi. Savolnomadagi ma'lumotlarni statistik o'rganish va tahlil qilish maqola mualliflari tomonidan amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Inson sihat-salomatligini saqlash va mustahkamlashda, zarur bo'lganda uni tiklashda sanatoriya sharoitida davolanish va dam olishning ahamiyati haqida fikr yuritishar ekan, respondentlarning: -82,0% inson sanatoriya - kurort sharoitida qisqa muddatda bo'lsada, uy-xo'jalikdagi, ishxonadagi va boshqa tashvishlardan xoli (foriq) bo'lishini ta'kidlashdi; -yashash sharoiti va turmush tarzidagi sog'liqni saqlashga, mustahkamlashga olib keladigan omillarning ta'siri, sihatgohdan qaytgandan keyin ham, yanada ijobiy tomonga o'zgaradi degan fikrni 69,7 % respondentlar tomonidan bildiridi; -inson sihatgohda tibbiy xodimlar nazoratida bo'ladi, turli apparatlar yordamida sog'lig'ini tekshirtiradi (84,6 %); -turli tabiiy vositalar va usullar bilan davolanish imkoniga ega bo'ladi (96,0%); -inson uchun birinchi darajada zarur bo'lgan tabiatning betakror go'zalliklari, sanatoriya-dagi rahbaru- xodimlarning hushumila, mehrli munosabatu - muloqatlarining qurshovida bo'ladi, degan fikrni 93,6% respondentlar bildirishdi. Respondentlarning 48,0 % sanatoriya-dagi davolanish davrida inson respublikamiz va xatto xorijiy davlatlardan dam olishga kelganlar bilan tanishadi, do'stlashish imkoniga ega bo'ladi, deyishdi. Inson sanatoriya-dagi davolanish davrida va u yerdan qaytgandan keyin uzoq vaqtgacha ko'tarinki kayfiyatda yuradi, degan fikrni esa 89,5 % respondentlar aytishdi.

"Savolnoma..."da keltirilgan novbatdagi savollarga javoblardan quyidagilar ma'lum bo'ldi. Respondentlar tomonidan ularning oila a'zolari orasida sanatoriya - kurort sharoitida davolanishga ehtiyoj sezayotganlar borligini va buning sababi 31,4 % hollarda surunkali kasalligi va 45,7 % hollarda asablari charchaganligi tufayli ekanligi ta'kidlandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sihatgohlarning inson hayotidagi munosib o'rni va ijobiy rolini e'tirof etgan va ushbu maskanlarning sihat salomatlikni saqlash va mustahkamlashdagi samarasini to'laqonli va atroflicha mulohazalay oladigan respondentlarning oillarida, yaqin uch yil davomida sihatgohlarga borganlar soni, sihatgohlar haqida ijobiy fikrda bo'lmagan oilalardan ushbu davolash-sog'lomlashtirish muassasalariga borganlar soniga nisbatan 1,5 – 2,2 marta ko'p ekanligi qayd etildi.

1-jadval

Aholining sihatgohlarning inson hayotidagi roli va o'rni haqidagi fikr va mulohazalari

Aholining sihatgohlar haqidagi fikr va mulohazalari	Jami respondentlarning soni		Jumladan, ushbu fikrni bildirganlar
Inson sanatoriya - kurort sharoitida qisqa muddatda bo'lsada, uy-xo'jalikdagi, ishxonadagi va boshqa tashvishlardan xoli (foriq) bo'ladi	Abs. Son	403	330
	%	100,0	81,9
Yashash sharoiti va turmush tarzidagi sog'liqni saqlashga, mustahkamlashga olib keladigan omillarning ta'siri, sihatgohdan qaytgandan keyin ham, yanada ijobiy tomonga o'zgaradi	Abs. Son	403	281
	%	100,0	69,7
Tibbiy xodimlar nazoratida bo'ladi, turli apparatlar yordamida sog'lig'ini tekshirtiradi	Abs. Son	403	301
	%	100,0	74,7
Turli tabiiy vositalar va usullar bilan davolanish imkoniga ega bo'ladi	Abs. Son	403	366
	%	100,0	90,8
Inson uchun birinchi darajada zarur bo'lgan tabiatning betakror go'zalliklari, sanatoriya-dagi rahbaru-xodimlarning hushumomila, mehrli munosabatu-muloqatlarining qurshovida bo'ladi	Abs. Son	403	256
	%	100,0	63,5
Sanatoriya-dagi davolanish davrida inson respublikamiz va xatto xorijiy davlatlardan dam olishga kelganlar bilan tanishadi, do'stlashish imkoniga ega bo'ladi	Abs. Son	403	189
	%	100,0	46,9
Inson sanatoriya-dagi davolanish davrida va u yerdan qaytgandan keyin uzoq vaqtgacha ko'tarinki kayfiyatda yuradi	Abs. Son	403	236
	%	100,0	58,5

Muhokama. Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarni muhokama qilar ekanmiz, avvalo respondentlar tomonidan inson sihat-salomatligini saqlash va mustahkamlashda, zarur bo'lganda uni tiklashda sanatoriya sharoitida davolanish va

dam olishning ijobiy ahamiyati haqida fikr yurituvchilar aksariyat ko'pchilikni tashkil etishi e'tiborga molikdir. Fikrimizcha, agarda aholi o'rtasida, ayniqsa oilalar kesimida sihatgohlarning inson hayotidagi o'rni va rolini targ'ibot qilishga oid tadbirlar muntazam ravishda o'tkazilib turilsa, ushbu ko'rsatkich yanada yuqori bo'lishi mumkin edi. Ushbu qonuniyatli holatni nazarda tutgan Nesterova Ye.V., 1913 yilda, aholining turli qatlamlari va tibbiyot xodimlari o'rtasida, ularning sihatgohlarda davolash va sog'lomlashtirish imkoniyatlari haqida habardorligini oshirishga doir tadbirlarni takomillashtirish dolzarb muammolardan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Agarda, har bir oilada sihatgoh hizmatidan foydalanish ehtiyoji bor kimsalar mavjudligini nazarda tutsak, respublikamizning bioiqlimi va landshafti mos keladigan hududlarda ko'plab sihatgohlar qurish va ularni malakali mutahasislar bilan ta'minlash shu kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligini e'tirof etish va hal qilish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Ayni paytda, tadqiqotda olingan ko'rsatkichlar aholining sihatgohlar hizmatidan bahramand bo'lish imkoniyatlari masalalarini chuqur va keng o'rganishni va tahlil qilishni taqozo etadi. Bunda aholining sihatgohlar hizmatidan bahramand bo'lish imkoniyatlari ko'rsatkichiga ijobiy va salbiy ta'sir etadigan barcha omillarni aniqlashni bosh masala qilib qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar yana bir masalaga – sihatgohlar faoliyatini XXI ASR MIJOZLARI TALABI darajasida bo'lishni ta'minlashga qaratishning zarurligiga ishora qildi. Ushbu qonuniyatli holat, sihatgohlar faoliyatini tashkil qilish, ishtirok etish va bevosita bajarish ma'suliyati yuklangan barcha mutasadilardan mijozlar oldida doimo yuqori javobgarlik hissida bo'lishni taqozo etadi. Manbaalardan olingan ma'lumotlar va ushbu tadqiqot natijalari axolining sanatoriya-kurortlar hizmatidan foydalanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga oid ilmiy tadqiqotlar o'tkazishning va bunda masalaning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik tomonlarini o'rganishda tizimli yondoshish va tizimli tahlil prinsiplariga asoslanishning naqadar muhimligiga ishora qilmoqda[1,5]. Bunda, tadqiqotchilar va mutahasislar, aholining kam ta'minlangan qatlamini sanatoriya hizmatidan foydalanish imkonini oshirishda, bepul yoki imtiyozli yo'llanmalar berishni [2] sihatgohlar sharoitida davolashni tashkil qilish davlatniing turizmni rivojlantirish dasturini, sihatgohlar esa, tibbiy turizmning muhim tarmog'i sifatida qaralishini va davlat tomonidan qo'llab turilishi maqsadga muvofiq, degan, fikrni bildirishadi [2,7,12].

Xulosalar. Aholining aksariyat ko'pchilik qismi sihatgohlar haqida ijobiy fikrda. Aholining sihatgohlarning inson hayotidagi, jumladan sihat-salamatlikni saqlash va mustahkamlashdagi o'rni va roli haqidagi fikrlarining to'laqonligi va mulohazalarining chuqurligi ularning sihatgohlar hizmatidan bahramand bo'lish faolligi ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omil sifatida qayd qilindi. Ayni paytda, oila a'zolari vakillarining sihatgohlar va ularning inson hayotidagi, jumladan sihat-salamatlikni saqlash va mustahkamlashdagi o'rni va roli haqidagi fikrlari to'laqonli shakllanmaganligi va mulohazalarining sayozligi kuzatildi. Ushbu probelni to'ldirishda, soha olimlari va mutahasislari, davolash-profilaktika muassalari va sihatgohlarning shifokorlari, hamda turopertorlarning, avvalo o'zaro hamkorlikda ishlashlarining zarurligiga e'tibor qaratilishi lozim. Shuningdek, sihatgohlar faoliyatini, jumladan ushbu maskanlarning inson hayotidagi o'rni va rolini targ'ibot qilishga doir tadbirlarning tashkiliy tomonlarini yanada takomillashtirish va bunda aholining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik tomonlarini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бабенко А.И., Денисов В.Н. Социально-гигиенические аспекты развития санаторно курортного лечения и медицинской реабилитации Сибири//Бюллетень СО РАМН.№4 (114).2004..... <https://cyberleninka.ru/>article>so...>
2. Веселова Т.Е., Никитин М.В. Сбытовые инновации в рамках маркетинговых программ санаториев, ориентированных на слабозащищенные социальные слои россиян. //Гуманизация образования. Гуманизация образования. – 2010. – №5. – С.62 – 67.
3. Винокуров Б. Л., Бальнеотерапия компьютерной болезни и синдрома генерализованной утомляемости от сотовой связи / Б.Л. Винокуров. - Сочи: Минеральные воды Отечества, 2014. - 420 с.
4. Голбчикова Л.А. Санаторно-курортный комплекс Российской Федерации: социологический анализ(на примере Сочинского санаторно-курортного комплекса).dslib.net, <https://www.dslib.net/sok-struktura>
5. Грачева О.Е. Социологический мониторинг: оценка мнения, реальность и перспектив. <https://publishng-vak.ru/>file>
6. Зыкова Т.В., Кочкурова Е.А. Социально-экономические проблемы устойчивого развития сферы услуг нижегородской области//Фундаментальные исследования.-2019.-№7. -С.53-59
7. Ершова И.В. Санатории: уникальный феномен на туристическом рынке.,2019. Текст научной статьи по специальности “ Экономика и бизнес”. <https://cyberleninka.ru/>article>sa...>
8. Лучкевич В.С., Качество жизни и здоровье населения: электронный сборник материалов научно-практической конференции, посвященной 90-летию кафедры общественного здоровья и здравоохранения / под редакцией, проф. В.С. Лучкевича. – СПб., 2014. – 351 с.
9. Нестерова Е.В. Пути совершенствования информированности населения и медицинского персонала о возможностях лечения и оздоровления в санаторно-курортных организациях Российской Федерации.// Автореф. дисс. канд. мед. наук. М., 2013г. 18 с. <https://medicakal-diss.com/medicina>
10. Никитина О.А. О необходимости создания социально-ориентированной системы обеспечения Россиян санаторно-оздоровительными услугами. //Фундаментальные исследования.-2014.-№6. -С.320-324, <https://Fundamental-research.ru/>vi...>
11. Низамов И.Г., Сабиров Л.Ф. Вопросы комплексной оценки результативности санаторно-курортной помощи.// Современные проблемы науки и образования. -2012. -№1.; URL: <https://science-educattion.ru/ru/article/view?id=5359>

12. Присенко В.И., Махкамова З.Р., Чигидина В.В. Концептуальные аспекты развития санаторно-курортного комплекса Крыма., Евроазиатский союз ученых. 30.05.2015.(14). <https://euroasia-science/ru> > концеп...
13. Самойлова И. Г. Результаты социологического исследования мнения врачей об организации медицинской реабилитации детей в регионах Российской Федерации. //Инфектология.Том 10,№ 2, 2018 , 83-91, //journal.niidi.ru <https://journal.niidi.ru> >articl
14. Чудновский А.Д. Организация санаторно-курортной деятельности. 2014. <https://elib.fu.ru> > org_tourism
15. The economic and social value of spa tourism: The case of balneotherapy in Maresme, Spain. Экономическая и социальная ценность спа-туризма: пример бальнеотерапии в Маресме, Испания. January 2022 PLoS ONE 17(1):e0262428 DOI:10.1371/journal.pone.0262428 LicenseCC BY 4.0 Authors: Jose Torres Pruñonosa, Fundació TecnoCampus , Mataró-Maresme, Josep Maria Raya, University Pompeu Fabra, Patricia Crespo-Soga, Esther Mur-Gimeno <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0262428>
16. HOW SPA THERAPY BENEFITS MENTAL HEALTH AND WELLNESS КАК СПА-ТЕРАПИЯ ПОЛЕЗНА ДЛЯ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ И ХОРОШЕГО ЗДОРОВЬЯ November 8, 2021 Spa, Wellness 720 11 Ave SW, Calgary, AB T2R 0E4 View Location (403) 258-3268 info_beltline@leelaecospa.com <https://leelaecospa.ca/how-spa-therapy-benefits-mental-health-and-wellness/>